Elektron katalizda katalizator vazifasini elektr tokini utkazgichlar bajaradi. Tajriba natijalarining kursatishicha, Mendeleev davriy sistemasining katta davrlardagi metallar katalitik aktivlikka ega. Bular asosan I, IV, VII va VIII gurux metallaridir. Bular jumlasidan mis, kumush, xrom, molibden, volfram, uran, temir, kobalt, nikel, platina, palladiy va boshkalar. Bu metallarning xammasi tugallanmagan d kavatga ega bulib, katalitik aktivlik namoyon kiluvchi kupgina xossalarga ega: uzgarib turuvchi oksidlanish darajasiga, kompleks birikma xosil kilishga moyilligi va elektronning chikish ishining pastliliga. CHukurrok olib karalganda metallarda kataliz katalizatorlar sirtidan reagentlarning aktiv absorbttsiyanlashiga asoslangan, kaysiki elektronlarning reaksiya turiga boglik ravishda metalning d katlamiga yoki undan donor aktsipter ravishda utib turishidir. Kislotali – asosiy (ionli) katalizga gidrotatsiya, degidrotatsiya,

aminlash, izomerizatsiya, alkillash kabi reaksiyalar karaydi. Bu reaksiyalarda katalizator sifatida ion utkazuvchanlikka ega bulgan kattik kislotalar xizmat kiladi. Kislotali katalizatorlarga kam uchuvchan kislotalar (N_3RO_4 , H_2SO_4), nordon tuzlar (fosfatlar, sulfatlar) shu bilan birga anion berishga moyil (alyumosilikatlar, gidrotlangan aluminiy, Si, W oksidlari) kattik noorganik moddalar kiradi. Asosiy katalizatorlarga ishkoriy metallar oksidi va kuchsiz kislotalarning ishkoriy tuzlari kiradi.

Ion geterogen kataliz mexanizmiga gomogen kislotali - asosiy kataliz mexanizmi uxshash. Bu ikkala katalizda xam katalizator va ta'sirlashuvchi molekulalar orasida proton yoki ionlarning (kation va anionlarga) almashinishiga olib kelinadi.

Kattik govak katalizatorlarning katalitik aktivligi ularning kimyoviy tarkibi bilan birga govaklilik tuzilishiga boglik. Govaklilik tuzilishi ostida donalar shakli, govaklarning xajmi, ulchami va donaning ichki sirti tushuniladi. Katalizatorning aktivligi uning sirtiga proporsionaldir.

Kattik govak katalizatorlarda kataliz jarayoni kuyidagi elementar boskichlardan iborat:

- 1) ta'sirlashuvchi moddalarning okim yadrosidan katalizator donasi sirtiga diffuziyasi;
- 2) reagentlarning katalizator donasi govaklariga diffuziyasi;
- 3) katalizator sirtida kimyoviy boglanishlar, aktivlashgan komplekslar xosil bulishi bilan boradigan faollashgan adsorbtsiya: reagent – katalizator;
- 4) sirt komplekslarning xosil bulishi bilan boradigan atomlarning guruxlarga bulinishi: maxsulot-katalizator;
- 5) katalizator sirtidan maxsulotning desorbtsiyasi;
- 6) katalizator govaklariga maxsulotning diffuziyalanishi;
- 7) maxsulotning katalizator sirtidan okim yadrosiga diffuziyasi.

Geterogen kataliz

1. Geterogen katalitik jarayonlarning boskichlari.

Bu xil jarayonlarda kupincha katalizator kattik modda, reagentlar esa suyuq yoki gaz (bug) xolida buladi. Jarayon fazalar chegarasida boradi, shunga kura kataliz asosan birin ketin boradigan 5 tarelka jarayondan iborat.

1. Dastlabki moddalarni katalizator yuzasiga olib kelish;
2. Katalizator yuzasiga adsorblanish;
3. Katalizator yuzasidagi reaksiyalar;
4. Reaksiyada xosil bulgan moddani desorblanishi;
5. Xosild bulgan moddalarni katalizator yuzasidan olib ketilishi va aktiv markazlarni bush kolishi.

Bu jarayonlarning kaysi biri sekin borsa, umumiy jarayon tezligi shu boskichni tezligiga teng buladi. Bu boskichga chegaralovchi (limitlovchi) boskich deyiladi. Odatda ikkinchi boskich (kinetik soxa) chegaralovchi bulishga intiladi. Kaysi boskichni chegaralovchi bulishi katalizatorning xossasiga (aktivligiga) va reaksiya sharoitiga boglik.

Katalizator aktivligiga turli faktorlarning ta'siri.

Temperaturaning ta'siri. Katalitik reaksiyani unumiga nisbatan Vant-Goff - izoxora – izobara tenglamasi, bu tenglamadan chikadigan xulosalar uz kuchini saklab koladi. Lekin temperatura katalizatorni aktivligiga ta'sir kiladi. Xar bir katalizator tarkibi va tayyorlanish sharoitiga karab, ma'lum reaksiya uchun ma'lum temperatura chegarasida eng katta aktivlikka ega buladi.

Odatda katalizator kancha aktiv bulsa, uni past temperaturadagi aktivligi shuncha katta buladi va temperaturani katalizator aktivligiga ta'siri sekinrok seziladi. Temperaturani katalizator normal ishlaydigan ish temperaturasidan oshishi uni aktivligini kamaytiradi va xatto uni passiv kilib kuyadi. SHuning uchun katalitik reaksiyalarda temperaturani uzgarib turishi va ayniksa xaddan tashkari oshib ketishi katalizator uchun xavflidir. SHunga kura, reaksiya natijasida, ayniksa ekzotermik reaksiyalardan chikayotgan issiklikni keraksiz kismini reaksiya muxitidan chetlatish kerak buladi.

Kupincha, katalizator ma'lum temperaturadan pastda unga aktivlik kursatmaydi. Masalan: kuk tusli volfrom oksidi 210°S dan past temperaturada etil spirtidan etilen xosil bulish reaksiyasini uncha tezlatmaydi.

Ba'zan temperatura minimum ish temperaturasidan oshgan sari katalizatorning aktivligi uzluksiz oshavermaydi, balki ma'lum temperaturadan sung aktivligi uzgarmas bulib koladi. Bu xol gidrogenlash reaksiyalarida kup uchraydi.

Katalizatorning aktivligi namoyon buladigan minimum temperatura katalizatorni kanday tayyorlanganligi va reaksiyani mexanizmiga boglik.

Bosimni ta'siri. Bosim uzgarishi bilan katalitik reaksiyalarni unumi, umuman, Le-SHatele printsiyiga buysunadi. Lekin geterogen katalitik reaksiyalarda jarayonni birinchi boskichi adsorbtsiyalanish bulganligi uchun bosim uzgarishi bilan reaksiya tezligi, binobarin, katalizatorning aktivligi xam uziga xos ravishda uzgaradi.

Geterogen katalitik reaksiyalar effektiv kontsentratsiya gaz muxitdagi gazlarni portSIONAL bosimiga emas, balki ularni katalizatorlarga adsorbtsiyalangan kontsentratsiyasiga teng bulgani va adsorbtsiyalanish tuyinguncha bu kontsentratsiya oshib borgani sababli, tuyinish bosimigacha bosim oshishi bilan reaksiyani tezligi xam osha boradi. SHuning uchun bosimni uzgarishi fakat molekular sonini uzgarishi bilan boradigan reaksiyani (masalan, $3\text{H}_2 + \text{N}_2 \rightarrow 2\text{NH}_3$ reaksiyani) tezligini emas, xatto

molekular soni uzgarmasdan boradigan reaksiyalarni tezligini xam uzgartiradi. Adsorbtsiyalanish tuyinish bosimidan sung yuzadagi kontsentratsiya uzgarmasligi uchun yukori bosimda bosim uzgarishi reaksiya tezligini uzgartirmaydi.

Bosim uzgarishi bilan reaksiya tezligi uzgarishini xarakteri turlicha bulishi mumkin, ba'zan tugri chizik konuni asosida, lekin, kupincha uziga xos ravishda uzgaradi.

Ba'zan bosimni uzgarishi reaksiyani yunalishini xam uzgartirishi mumkin. Vodorod bilan uglerod (II) oksid orasida boradigan reaksiya bunga misol buladi. Normal bosimda reaksiyani asosiy maxsuli metan buladi. Reaksiya oksid katalizator ishtirokida yukori bosimda olib borilsa, metil spirt, juda yukori bosimda esa yukori molekulali spirtlar xosil buladi.

Katalizatorning maydalanganlik darajasi ta'siri. Ma'lum mikkdorda katalizator donachalarini ulchami kichraygan sari uni yuzasi ortib boradi, natijada uni aktivligi xam ortadi. Ikkinchi tomonidan donachadar kichiklashtirilgan sari reagentlarni diffuziyalanishi kamaya boradi, bu esa katalizator aktivligini kamayishiga olib keladi. Kolloid xolida katalizatorlar bu jixatdan olganda optimal maydalangan buladi.

Katalizatorlar

Gomogen jarayonning katalizatorlari gaz (HCl , NH_3 , BF_3 , azot oksidlari) yoki suyuq moddalar (mineral kislotalar, SO_2Cl_2 , organik asoslar va xokazo) dir. Ularni tayyor xolda olinadi va ma'lum mikkdorda reaksiyon sistemaga kirgiziladi.

Reaksiyalarni geterogen fazada olib borish uchun kattik katalizatorlar kerak. Ular yukori darajada aktiv bulishi kerak, bu esa uz navbatida katalizatorni yuzasiga boglik buladi, ya'ni katalizatorni tayyorlash usllariga va ularni reaksiyadan oldin kayta ishlash boglikdir. Kattik katalizatorlarga kuyiladigan asosiy talablar: uni aktivligi, barkarorligi (stabilnost), tanlovchanligi, uzok muddat ishlashi, zaxarlarga va yukori xaroratga chidamliligi, regenerirlashni osonligi. Katalizatorni ishga yarokliligi uni tayyorlashda ishlatilgan materiallarga va ishlab chikarish sharoitiga boglikdir.

Katalizatorni uzok muddat ishlashi uni optimal ish rejasini tugri olib borishga boglikdir. Ishlash sharoitlariga rioya kilmaslik katalizatorni tezda ishdan chikishiga olib keladi. xozirgi zamon katalizatorlari murakkab va kup komponentli aralashmalar va birikmalardan tuzilgan bulib, ular tarkibiga aktivlochi kushimchalar kiritilgan buladi. Bu katalizatorlarni tarkibi elektrik usulda topiladi.

Katalizatorni chuktirib tayyorlash uchun kupincha nitrat tuzlarining yoki organik karbon kislotalarining suvli eritmalaridan foydalaniladi. Sulfatlar va galogenidlarni ishlatish taklif kilinmaydi, chunki SO_4 va Cl ionlar gelgi adsorblanib tayyor katalizatorni aktivligini pasaytiradi.

CHuktirishni ammiakli suvli eritmasi, $(\text{NH}_4)_2\text{CO}_3$, Na_2CO_3 , K_2CO_3 lar bilan amalga oshiriladi. CHuktirish jarayoni sovuk yoki issik sharoitda kontsentrlangan va kontsentrlanmagan eritmalaridan olib borilishi mumkin. CHuktirilayotgan vaktda tula chuktirishga erishishi kerak, bu esa empirik usulda amalga oshiriladi. CHuktirish tezligini, xaroratini va eritmalar kontsentratsiyalashi keng miqyosda uzgartirish mumkin. Masalan, aktiv $\text{Zn}(\text{OH})_2$ suyultirilgan eritmalaridan chuktiriladi, aktiv Cu-katalizatori esa kontsentrlangan ishkorni mis nitrat yoki mis atsetat tuzining kontsentrlangan eritmasiga 60-80⁰S da kuyib chuktirib olinadi. Aralash katalizatorlarni olish uchun aktiv komponentlar tuzlarini eritmasini birgalikda chuktirib olish maksadga muvofikdir. Xisoblarni metallarni nisbatiga karab kilish kerak. olingan chukmalarni distillangan suv bilan OH^- yoki NO_3^- ionlari yukolguncha yuvish kerak. toza yuvilmaganda katalizator aktivldigi pastrok buladi va u tez charchab koladi. CHukmada ortikcha ishkorni bulishi kondensatsiya jarayonini xosil kiladi. Buning natijasida yuzaga kondensatsiya maxsulotlarining uchmaydigan birikmalarini plyonkasi xosil buladi, bu esa adsorbtsiyani kiyinlashtiradi. SHuning uchun chuktirilgan gellar yaxshilab-tozalab yuviladi.

YUvilgan chukmalar termostatlarda xar xil xaroratlarda kuritiladi va ulardan katalizatorlar tayyorlanadi. Katalizatorlar tabletka, dona, simon yoki boshka formalarda tayyorlanadi va maxsus pechlarda kizdirilib me'yoriga etkaziladi.

Katalitik aktivlik yuza bilan chambarchas boglikdir. SHuning uchun aktiv komponentlar neftral bulgan govak materiallar yuzasiga chuktiriladi. Bu materiaallarni yoyuvchilar (nositel) yoki «tregerli» deyiladi.

Katalizatorlarni kaytarish (vosstanovlenie)

CHuktirish yoki shimdirish, kizdirish usullari bilan olingan katalizatorlarni aktiv komponentlarni oksid xolida bulganligi uchun ularni metall xoligacha kaytarish zarur. Al_2O_3 , Cr_2O_3 , ThO_3 vodorod ta'sirida umuman kaytarilmaydi, yoki juda kiyin kaytariladi.

SuO , NiO , CoO – vodorod ta'sirida oson kaytariladi. Kaytarilgan metall juda rivojlangan yuzaga ega buladi. katalizatorni aktivligi, ya'ni uning yuzasini rivojlanganligi, kaytarilish jarayonining parametrlariga boglikdir. Bu parametrlar uzgarmas bulib, katalizatorni kayta tayyorlanganda xam shu natija kaytarishi kerak. odatda kaytarish jarayoni katalizator solingan reaktorda utkaziladi va keyin katalitik reaksiya davom ettiriladi.

Xar bir katalizator uzini kaytarilish rejimiga ega bulganligi uchun bu jarayonni xamma katalizator uchun bir xil sharoitda utkazish mumkin emas. Katalizatorlar 180-200⁰S da, nikel 205-300⁰S da, kobalt esa 400⁰S da kaytariladi. Kaytarish jarayoni asosan toza vodorod yordamida olib boriladi, lekin ba'zan shu maksadda suv gazi, azot-vodorod aralashmasi, toza oksid uglerod, metanol yoki etanol parlari va xokazo kulaniladi.

Kaytarish jarayoni usullari turlicha bulishiga karamay, jarayonni umumiy koidalariga rioya kilish kerak. katalizatorni kaytarilish xaroratigacha kizidirish va kaytarilish jarayoni tugagandan sung uni sovutish asta-sekin bir xil tezlikda olib borilishi kerak.

Kaytarilgan katalizatorlar sovutish vaktida juda kup vodorod yutgan (adsorblangan) buladi. SHuning uchun ular pirofordilar, ba'zida yonib ketishi mumkin. Piroforligini sababi yuzaga adsorblangan vodorodni kislorod yordamida yonishi natijasidir.

Kaytarilgan katalizatorlarni xavoga olib chekib bulmaydi, chunki ular uz aktivligini yukotib kuyadi. SHuning uchun kaytarilgan katalizatorlar vodorod atmosferasida saklanadi.

Katalizatorni xizmat vakti. U yoki bu reaksiyani olib boradigan katalizator, vakt utishi bilan uzgaradigan uzini aktivlik faoliyatini, xayotini chizigiga ega. buni uch davrga bulinadi:

1. «Sozrevanie» - etilish;
2. Uzgarmas aktivlik davri
3. Ortib borayotgan charchoklik

Xar bir katalizator uchun byuu davrlar xar xil buladi va xarakteri, davomiyligi bilan bir necha minutdan bir necha yilgacha boradi.

Kup katalizatorlar uchun reaksiya birdan boshlanmaydi, balki biroz induksion (etilish) vaktidan sung. Bu davrda katalizatorni aktivligi ortib boradi va maksimumga erishadi. shundan sung aktivlik biroz pasayib barkarorlashadi va katalizator optimal ish sharoitiga rioya kilinganda barkaror ishlaydi. Bu davr katalizator aktivligini eng sermaxsul foydali davri xisoblanadi va uni xususiyatiga boglikdir. Bu davr bir necha soatdan bir necha yilgacha bulishi mumkin. Masalan, Ni-li gidrirlash katalizatorlari bir necha xafta aktivligini yukotmaydi, alyumosilikat katalizator esa kreking jarayonida 10 min ishlaydi.

Kattik katalizatorlarning xossasi va ularni tayyorlash.

Sanoatda ishlatiladigan kattik katalizatorlar goxida kontaktlar deb nomlanadi va ular aloxida bir modddadan tashkil topmagan. Ular asosan murakkamb aralashmalar bulib va kupgina xollarda kontakt massa deb yuritiladi. Kontakt massada bir xil moddalar katalizatorlar bulib, boshkalari aktivator va tashuvchi vazifasini bajaradi.

Aktivator yoki promotorlar deb asosiy katalizatorning aktivligini oshiruvchi moddalarga aytiladi. Masalan. sulfat kislota ishlab chikarishda asosiy komponent vanadiy 5 oksidiga zarur kushimcha sifatida ishkoriy metallar oksidlari kushiladi. Kushimchalarning faollashtirish mexanizmi kiyin va shu bilan birga xilma-xildir. Ba’zida aktivator katalitik aktiv modddaning sirtini kattalashtiradi yoki katalizatorning xaroratga chidamliligini oshiradi, ba’zida katalizatorni zaxarli moddalar bilan ta’sirlashishini oldini olib ximoya vazifasini bajaradi. Tashuvchilar yoki tregerlar deb issiklikka chidamli inert, sirtiga katalizator surtilgan moddalar tushuniladi. Tashuvchilar sifatida pemza, asbest, silikagel, alyumogel, alyumosilikatlar, kaolin, kumir va boshka turzlar kullaniishi mumkin.

Sanoat katalizatorlari berilgan reaktsiyaga muvofik aktiv, zaxarli moddalarga chidamli, arzon va kontakt apparatlarida ishlatish uchun chidamli: mexanik, pishik, issiklikka chidamli va ma’lum darajada issiklik utkazuvchan bulishi kerak.

Faol katalizatorlar tayyorlashning asosiy metodlari

1. Hidrookis va karbonatlarning ularning tuzlari aralashmasidan chukishi va keyinchalik formalanishi va toblanishi.
2. Aralash katalizatorlar yoki aktivator va tashuvchilari bulgan katalizatorlar olish uchun kukunlarni kushma presslash.
3. Bir nechta moddalarni eritib, shu bilan birga ulardan birini ishkoriylantirish. Gidritlash katalizatori bulgan Ni – katalizatorini tayyorlashda Ni, Al bilan birga eritilib va aluminiy ishkorga aylantiriladi.
4. Govak tashuvchilarni katalizator va aktivator saklagan eritma bilan tuyintirish va uni kuritib toblash. Bu tur katalizatorlarga metall, oksid, kislotali va asosiy katalizatorlar kiradi.

Ba’zida katalizatorlarni xar xil metallarning kotishmalaridan ingichka setka kurinishida tayyorlanadi (platina-palladiy-rodilyi setka ammiakni oksidlash uchun).

Katalizator sifatida ba’zi bir minerallar va ularning aralashmasi kullaniyadi. Masalan: alyumosilikat, temir oksidlari, oksidlar va boshkalar.

Katalitik jarayonlarni (jixoziy, uskunaviy) tasvirlash

Gomogen kataliz reaktorlari ajralib turadigan xarakterga ega emas. Bir jinsli muxitda katalitik reaktsiyalar utkazish juda engil va maxsus konstruktsiyaga ega bulgan

jixozlarni talab etmaydi. Bu jixozlarga kameralar, kolonnalar, trubkali issiklik almashtirgichlar kiradi.

Geterogen kataliz reaktorlarida asosan gaz va kattik katalizatorlar ta'sirlashadigan kontakt jixozlar uziga xos va xilma-xil buladi.

Fazalar belgisiga karab reaktorlar turt turga bulinadi.


I. Ta'sirlashuvchi muxit – gaz: katalizator – kattik

1. Sirt kontakt jixozlari.
2. Kuzgalmas katlamli katalizatorli kontakt jixozlari
3. Muallak katlamli katalizatorli kontakt jixozlari
4. Xarakatlanuvchi katalizatorli kontakt jixozlari

II. Ta'sirlashuvchi muxit – suyuqlik: katalizator – kattik

1. Kuzgalmas katalizatorli jixozlar
2. Muallak katlamli katalizatorli jixozlar
3. Aralashtirgichi bulgan jixozlar

Sirt kontaktli jixozlarda katalizatorning tuba va setka shaklida katalizator joylshatiriladi va undan gaz utkaziladi. bu turdagi jixozlar filtrlovchsi yoki muallak katlamli katalizatori bulgan jixozlardan kamrok ishlatiladi, chunki bu jixozlarda katalizatorning aktiv sirti kamrok. SHuning uchun bu jixozlar yukori aktiv katalizator ishtirokida boradigan ekzotermik reaksiyalarda kullaniladi.




Юкори актив
катализаторли контактли
жихози

1-жихознинг устки кисми;
2-решетка 3- каталлизатор

Filtrlovchi katlamli katalizatorli jixozlar xozirgi vaktida kup tarkalgan, ular xamma katalitik reaksiyalarda kullaniladi. Bu xil jixozlarda bir yoki bir necha katlam katalizator kuzgalmas ravishda reshetka va polkalarida turadi. Ta'sirlashuvchi gazlar aralashmasi katalizatorlar orkali utadi. Bu erdagi katalizatorlar donador yoki granula shaklida buladi.

Muallak katlamli katalizatorli jixozlar.

Bu jixozlarda asosan diametri – 0,5-2 mm bulgan kichik donali katalizator ishlatiladi. Katalizatorning mayda kismalarining muallak katlami ta'sirlashuvchi moddalarning gaz (suyuklik) katlamida xosil buladi. Buning uchun ustida katalizatorlar turgan reshetka orkali gaz pastdan yukoriga katta tezlikda yuboriladi. SHundan keyin katalizator kislari xarakatga kelib, kuzgalmas xolatdan muallak xolatga utadi. muallak xolatdagi katalizator kup yunalishlar buylab vixirli xarakatlanib va buning natijasida okim yadrosidan katalizatorlar kislmariga reagentlar diffuziyasi tezlashadi. Muallak katlamli katalizatorli kontakt jixozining sxemasi kuyidagi rasmda berilgan.



Katalizatorni muallak xolatidagi kup katlamli kontaktli apparat.

1-gaz taksimlaydigan kalpokchali reshetka, 2-muallak xoldagi katalizator, 3-suvli sovutgich, 4-gaz taksimlagich, A-dastlabki gaz, B-reaktsiya maxsuloti

1. Xolat diagrammasi va uni ifodalash usullari.

Kimyoviy texnologiyada mineral o'g'itlar va tuzlar ustidagi ko'p misollarni echishda ratsional texnologik tasvirlar yoki ishlab chiqarish parAmetrlarini tanlashda qayta ishlanayotgan fizik-kimyoviy sistemani tarkibi, xolati va xossalarini bilish lozim. Fizik-kimyoviy sistema deb bir necha moddalarni birgalikda o'zaro ta'sirlashuvi, ular orasidagi massa va issiqlik almashishini borishi tushuniladi. Doimo ta'sirlashuvi natijasida sistema muvozanat xolatiga o'tishga intiladi. Agar sistema muvozanatdan qancha uzoq bo'lsa, moddalar orasidagi o'zgarishlar shuncha tez boradi. Shuning uchun ko'p texnologik muammolarni echishda sistemani muvozzantga o'tish shartlarini bilishni talab qiladi.

Sistemalar - ochiq sistemalar, boshqa sistema bilan massa va energiya almashadi; Yopiq sistemalar, boshqa sistema bilan faqat energiya almasha oladi; Yopiq sistemalar boshqa sistema bilan xech narsa almasha olmaydi, bo'linadi. Sistemalar gomogen va geterogen bo'lishi mumkin. Sistemalarning tarkib, xolat va xossalarini taxlil qilishda - kimyoning fizik - kimyoviy analiz bo'limi shug'ullanadi. Bu xossalar fizik kimyoviy diagrammalar yordamida ifodalanadi. Misol: tarkib - xona diagrammasi, xolat diagrammasi. Xolat diagrammasi boshqacha fazoviy diagramma deb xam atalib, u sistemani fozoviy tarkibiga - temperatura, bosim va x.k. larni ta'sirini o'rganadi. Bu diagrammada fazalarni geometriyasi o'zgaradi. U eksprimental yo'l bilan topiladi.

Xolat diagramma qattiq fazani suyuqlanishi yoki uni suyuqlanmada kristallanishini ko'rsatadi. Bu ko'proq yuqori temperaturada boradigan jarayonlarda bo'ladi. Neorganik moddalar ishlovchi qorishmada erish yoki kristallanish diagrammasidan ko'p foydalaniladi. Agar sistemani erishi yoki kristallanishi juda sekin borsa unga ba'zi plavniylar (erishni osonlashtiruvchi moddalar) yoki zatravkalar (kristallanishni tezlashtiruvchi moddalar) qo'shiladi. Bu esa sistemani metastabil xolatdan (sistemani ba'zi bo'limlarida tarkib va xossa, muvozanatdagi xolatdan farq qilish) stabil xolatga o'tishiga imkon beradi.

Ostval'd nazariyasi bo'yicha o'ta to'yingan eritmalarda avvalo metostatik qattiq xolat ajraladi. So'ngra u qiyin eritadigan metastabik formaga o'tadi. Oxirgi stabil fazoda eng yaxshi eritadigan faza qoladi. Gibbs fazalar qoidasini yaratdi. U F va erkinlik darajasi - S bo'lib, ular muvozanatda turadi va muvozanatda turadigan kompanent - K bor. Sistema parametrlar soni - n ta bo'lgan xolatdan iboratdir.

$$F+S=K+n$$

Kimyoviy sistemani xolati faqat ikkita parametr bosim va temperaturaga borliq. Shuning uchun sistemaning erkinlik darajasi:


$$S=K-F+2 \text{ ga teng.}$$

Xossalari jixatidan bir 'il bo'lgan, massasiga borlik bo'lmagan sistema bo'limlarini yirindisiga faza deb ataladi. Misol: Tuz kristali bitta faza xisoblanadi. Tuz eritmasida ikkita faza - bitta suyuq va bitta gaz faza (suv pari yoki uni xavo bilan aralashmasi) bor. Qattiq faza bir necha 'il bo'lishi mumkin. Misol - muz, suvsiz tuz, kristalogidratlar, qo'sh tuzlar.

Sistemani borlik bo'lmagan komponenti - K deb shunday individual moddalarga aytiladiki, ular muvozanat xolatida turgan xamma fazalarni xosil bo'lishiga sababchi bo'ladi. Sistema borlik bo'lmagan komponentlar miqdoriga qarab, 1 -, 2-, 3- va 4- komponentli bo'ladi. Misol: suv - bir komponentli sistema, bir xil tuzli suv - ikki komponentli sistema, ikki xil tuz va suv - uch komponentli sistema va x.k. Erkinlik darajasi - S, bu borliq bo'lmagan termodinamik parametr 1. Bir komponentli sistemada u ikkita (bosim va temperatura), ikki va undan ortiq komponentli sistemada u uchta (bosim, temperatura va kontsentratsiya).

11.2. Ikki va uch komponentli sistemalar.

Ikki komponentli sistemani xolat diagrammasi:



bu erda: N, A, V,D - figurativ nuqtalar.

NA - eritma va lif chiziri (muzni erish egresi)

AD - eritma va tuz chiziri. (tuzni erish egresi)

A - aftik nuqta, aftetik temperatura, aftetik aralashma.

NAD - maydonni seti, to'yinmagan tuz eritmasi oblasti

ASD - maydon to'yingan tuz eritmasi ortiqcha tuz va qattiq faza muvozanatida turish tuzni kristallanish maydoni.

AVN - maydon muzni kristallanish maydoni

OASS - maydon tuz va muz qattiq fazalar aralashmasi.

NAD - maydon ikki komponenti


ASD - maydon va AVN maydon uchta komponentli (fazali). Bularga bur, to'yingan eritma va bittadan qattiq faza.

OVSS - maydon uch fazali (A va ikkita qattiq faza)

Agar sistemaga bir variantli bo'lsa faqat bitta parametрни (temperatura yoki bosim yoki konsentratsiya) o'zgartirish kerak. Bu fazalar sonini o'zgartirmaydi. Agar ikkita parametr o'zgartirilsa, fazalar sonini, sifatini o'zgartirib yuboradi.

Uch komponentli sistemani xolat diagrammasi.

Xolat diagrammasini ifodalashni bir necha xil ko'rinishi bor. Ulardan biri teng tomonli



uch sistemali, koordinat ko'rinishida.

A, V, S - toza komponentlar.

Uchburchakli tomonlaridagi figurativ nuqtalar ikki komponentli sistema tarkibini, uchburchakning ichidagi figurativ nuqta uch komponentli sistemani tarkibini ko'rsatadi. Gibbs bo'yicha uchburchakning balandgini 100 % deb qabul kilinadi. Misol: M nuqtadagi A komponentni miqdori $M_k\%$, V - komponentni miqdori $M_m\%$, S - $M_n\%$. Bu erda $M_k + M_m + M_n = 100\%$

Rozebom bo'yicha uchburchakning tomonlari uzunligini 100% deb qabul qilinadi.

Misol: M nuqtadagi M_k - bo'lim A modda miqdori, M_m - V miqdorini, M_n - S miqdorini belgilaydi.

To'rt komponentli sistemani xolat diagrammasi juda murakkab bo'lib, uni turri tetraedr ko'rinishida; ya'ni to'rtta teng tomonli uchburchakni yassi ko'rinishida ifodalanadi. Tetraedrni yuqori nuqtalari toza komponentlarni, kabirgadagi nuqtalar ikki komponentli sistemani, uchburchak chegarasidagi nuqtalar uch komponentli sistemani, tetraedr ichidagi nuqtalar esa to'rt komponentli nuqtalarni ifodalaydi.

Xolat diagrammalridan: Misol - ammoniy karbonatni suvda erishi (M.E.Pozin, 234 bet) va $H_3RO_4 - H_2O$ sistemasini xolat diagrammasi (M.E.Pozin, 234 bet) tushuntiriladi.

Sanoatda G - J sistema keng tarqalgan. U taqsimlanish qonunini bir xosilasi bo'lgan Genri qonuni bilan tushuntiriladi.

$$R = \psi m^*$$

Bu erda: R - muvozanatdagi porseal bosim. m^* - eritmagan yutilayotgan gaz miqdori. ψ - Genri doimiysi.

Gitrogen jarayonlarda, misol G-K sistemani kinetikasi quyidagi bosqichlardan iborat:

- 1. Gaz oqimidan gazsimon reagentni qattiq yuzaga diffuziyalanishi.**
2. Gazsimon reagentni qattiq faza yuzasidagi reaksiya maxsuloti ustuda diffuziyalanishi.
3. Qattiq faza yuzasidagi reaksiya maxsuloti ustidan gazsimon maxsulotni diffuziyalanishi.
4. Qattiq reagent yuzasida boradigan ximiyaviy reaksiya.

5. Gazsimon maxsulotni gaz oqimi yadrosiga diffuziyalanishi va x.k.

Bu bosqichlar navbatma - navbat ketadi, jarayonning umumiy tezligi esa eng sekin boruvchi bosqichni tezligi bilan belgilanadi. Geterogen katalitik jarayonlarni tezligi xam xuddi shunday etaplardan iborat.

Nazorat savollari:

1. Gomogen kimyoviy jarayonlar kanday olib boriladi?
2. Gomogen reaksiyalarning kanday asosiy xususiyatlari mavjud?
3. Geterogen jarayonlar kanday olib boriladi?
4. Katalitik jarayonlar ta'riflab bering?
5. Katalizni kanaka sinflari mavjud?
6. Katalizning umumiy printsiplarini ta'riflab bering?
7. Gomogen va geterogen katalizlar xakida ta'rif bering?
8. Kimyoviy jarayonlarda kanaka katalizatorlar mavjud?

Adabiyotlar:

2. I.P.Muxlenova. «Obshaya ximicheskaya texnologiya», CHast 1, Moskva, «Visshaya shkola», 1977 g.
 3. Z.Salimov, I.Tuychiev. «Ximiyaviy texnologiya protsesslari va apparatlari», T.: «Ukituvchi», 1987.
 4. V.V.Kafarov. «Metodi kibernetiki v ximii ximicheskoy texnologii», M.: «Ximiya», 1971 g.
- S.K.Ogorodnikova. Spravochnik nefteximika. V duvux tomax. T.1 / Pod.red. – L.: «Ximiya», 1978.